



METHODS TO ENSURE THE LEGITIMACY OF THE STATE ADMINISTRATION

Qurbonov Oybek ¹

¹Tashkent State University of Law, Master in Public Administration Law

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4762303>

ARTICLE INFO

Received: 1st May 2021
Accepted: 5th May 2021
Online: 10th May 2021

KEY WORDS

legitimacy, methods of ensuring legitimacy, control, supervision, public control, judicial control.

ABSTRACT

This article is devoted to the concept of legitimacy, methods of ensuring legitimacy in public administration, opinions of scholars on methods of ensuring legitimacy, methods of ensuring legitimacy such as control, supervision, public control.

DAVLAT BOSHQARUVIDA QONUNIYLIKNI TA'MINLASH USULLARI

Qurbonov Oybek ¹

¹Toshkent davlat yuridik universiteti Davlat boshqaruvi huquqi mutaxassisligi magistranti

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 1-May 2021
Ma'qullandi: 5-May 2021
Chop etildi: 10-May 2021

KALIT SO'ZLAR

qonuniylikni ta'minlash,
qonuniylikni ta'minlash
usullari, kontrol, nazorat,
jamoatchilik nazorati, sud
nazorati

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola qonuniylikni ta'minlash tushunchasi, davlat boshqaruvida qonuniylikni ta'minlash usullari, qonuniylikni ta'minlash usullari haqida olimlar fikrlari, kontrol, nazorat, jamoatchilik nazorati kabi qonuniylikni ta'minlash usullariga bag'ishlangan.

Har qanday boshqaruvga oid bo'lgan tizimda boshqaruv organi tomonidan organning maqsad va vazifalariga hamohang ravishda ma'lum usullar qo'llaniladi. Boshqaruv organi tomonidan qo'llaniladigan u yoki bu usul eng avvalo huquq normasi bilan tartibga solinishi, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishga va ularni ro'yobga chiqishiga zamin yaratishi lozim.

Davlat boshqaruvi faoliyati sohasida qonuniylik prinsipining harakatda bo'lishi tashkiliy-huquqiy vositalar tizimi bilan

ta'minlanadi. Yuridik xususiyatlari va mazmuni jihatidan har xil bo'lgan bunday vositalarning yig'indisi – qonuniylikni ta'minlash usullarini tashkil etadi. Shu o'rinda biz davlat boshqaruvida qonuniylikni taminlash usullari haqida fikr bildirganimizda qonuniylikni taminlash tushunchasi haqida to'xtalib o'tsak.

Qonuniylikni ta'minlash – bu:

- birinchidan, davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatida qonuniylik talabidan chetga chiqishiga



yo'l qo'yimaslik;

- ikkinchidan, qonunbuzilishi holatlarini o'z vaqtida aniqlash;
- uchinchidan, aniqlangan qonunbuzilishi holatlarini bartaraf etish;
- to'rtinchidan, buzilgan huquq va qonuniy manfaatlarni qayta tiklash;
- beshinchidan, qonunbuzilishiga yo'l qo'ygan shaxslarni javobgarlikka tortish;
- oltinchidan, qonun buzilishlariga yo'l qo'yimaslik maqsadida, ma'lum bir chora-tadbirlarni amalga oshirish[1].

Demak, qonuniylikni taminlash deganda davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatida qonuniylik talabidan chetga chiqishiga yo'l qo'ymagan holda, qonunbuzilishi holatlarini o'z vaqtida aniqlash, aniqlangan qonunbuzilishi holatlarini bartaraf etish, buzilgan huquq va qonuniy manfaatlarni qayta tiklash, qonunbuzilishiga yo'l qo'ygan shaxslarni javobgarlikka tortish, qonun buzilishlariga yo'l qo'yimaslik maqsadida, ma'lum bir chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan faoliyat sifatida ko'rishimiz mumkin.

Aksariyat yuridik adabiyotlarda, davlat boshqaruvi jarayonida qonuniylikni ta'minlashning asosiy usuli sifatida kontrol va nazorat ko'rsatib o'tilgan. Jumladan, D.M.Ovsyankoning fikricha, davlat organlari faoliyatida qo'llaniladigan turli huquqiy va tashkiliy shakl va usullar, amaliy usullar – qonuniylikni ta'minlash usullari hisoblanadi hamda bu kontrol va nazoratdir[2]. Bu yerda D.M.Ovsyankoning fikriga ko'ra davlat boshqaruvida qonuniylikni taminlashda ikkita usul yani kontrol va nazoratni nazarda tutgan. A.A.Karmolitskiyning fikricha esa, davlat boshqaruvida qonuniylik tashkiliy-huquqiy vositalar orqali ta'minlanadi. Mazmuniga ko'ra ular qonuniylikni ta'minlash usullarini, uning tizimini anglatadi. Qonuniylikni ta'minlash jarayonida davlat

organlari o'z vakolatlari doirasida kontrolni hamda uning ko'rinishlari bo'lgan nazorat va ijro etishni tekshirishni amalga oshiradilar. A.A.Karmolitskiy boshqa huquqshunos olimlardan farqli ravishda, qonuniylik va intizomni ta'minlashning uchinchi usulini – *ijro etishni tekshirishni* ham kiritadi[3].

D.D.Sabriya, davlat boshqaruvida qonuniylikni taminlash usullariga kontrol (ijro etishni tekshirish) va nazorat bilan bir vaqtda *shikoyat qilish huquqini* kiritadi[4]. Uning fikricha qonuniylikni taminlashda faqatgina kontrol va nazorat bilan taminlanib qolmasligini va qonuniylik taminlanishini fuqarolarning shikoyat qilish huquqi orqali erilishishi mumkinligi haqida fikr bildiradi.

Demak, yuqoridagilarga asoslanadigan bo'lsak, huquqshunos olimlari davlat boshqaruvida qonuniylik va intizomni ta'minlashning asosiy usullari sifatida *kontrol, nazorat, tekshirish* va *shikoyat qilishni* ko'rsatib o'tishadi.

Kontrol – qonuniylik va intizomni ta'minlash usuli sifatida yoki davlat organlarining funksiyasi, ya'ni boshqaruv faoliyatining turi sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Kontrol ijtimoiy boshqaruv tizimida katta ahamiyatga ega bo'lib, u hokimiyat subyektlarining mavjud holatlari to'g'risida, qarorlarning ijro etilganligi haqida ma'lumotlarni olishda xizmat qiladi. Kontrol ijro intizomini mustahkamlashda, amalga oshirilgan ishni baholashda, ma'lum bir jarayonni operativ tartibga solishda qo'llaniladi.

Kontrol mazmuni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1) kontrol ostiga olingan obyektlar faoliyati ustidan kuzatish, ular tomonidan qoidalar va ko'rsatmalarning bajarilishi, mavjud holatlar to'g'risida obyektiv ma'lumotlar olish. Ma'lumotlar hisob va hisobot hujjatlarini o'rganish, tekshirish,



invertarizatsiya, taftish, tushuntirishlar va boshqa shakllarda olinadi;

2) to'plangan axborotlarni baholash, yo'nalishlarni belgilash, istiqboldagi rejalarni ishlab chiqish;

3) qonuniylikni buzish holatlarini, zararli oqibatlarni, maqsadga nomuvofiq harakatlar va xarajatlarni bartaraf etish bo'yicha ma'lum bir choralarni ko'rish, shuningdek, huquqbuzarlikni oldini olish maqsadida huquqqa xilof faoliyatni to'xtatish;

4) huquqbuzarliklarning hisobini olib borish, ularni sodir etilishi sabablari va sharoitlarini aniqlash;

5) aybdor shaxslarni aniqlash, ularni javobgarlikka tortish. Kontrolni amalga oshiruvchi organlar aybdor shaxsning javobgarligini o'zlari hal etishlari mumkin yoki bu masalani vakolatli davlat organlariga kiritishlari mumkin.

Kontrol rahbarlik (boshqaruv) faoliyatining ajralmas elementi hisoblanadi. Shu bilan birga, u rahbarlik darajasini oshirishni, uning to'g'riligi va samaradorligini tekshirish vositasi ham hisoblanadi.

Kontrolni amalga oshirish jarayonida:

– kontrol ostiga olingan obyektning holati tahlil qilinadi va unga baho beriladi;

– hal etilmay qolgan masalalar aniqlanadi;

– amaliy tajriba umumlashtiriladi va qo'llaniladi;

– ijro etuvchilarga turli xildagi yordam beriladi.

Demak, kontrol davlat organlari oldiga qo'yilgan vazifalarning bajarilishini, ularning faoliyatida qonuniylik va intizomning ta'minlanishini belgilovchi asosiy vositadir. Qonuniylikni ta'minlash jarayonida qonun buzilishini ogohlantirish va cheklashda uning o'rni kattadir.

Kontrol davlat boshqaruvi jarayonida qo'llaniladigan boshqa usullardan (nazorat,

tekshirishdan) farq qilgan holda, quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga egadir:

– kontrolni amalga oshiruvchi organ (mansabdor shaxs) va kontrol ostiga olingan obyekt o'rtasidagi aloqalarning vertikaligi, ya'ni bu munosabatlar bo'ysinuvga asoslanadi;

– kontrol qonuniylikni ta'minlash bilan bir vaqtda, maqsadga muvofiqlikni aniqlash uchun ham qo'llaniladi;

– kontrolni amalga oshiruvchi organ (mansabdor shaxs) obyektning qarorlarini bevosita bekor qilish vakolatiga ega bo'ladi;

– kontrolni amalga oshiruvchi organ (mansabdor shaxs) kontrol obyektining faoliyatida qonun buzilishiga yo'l qo'yilgan bo'lsa, uni bartaraf etish, aybdorni aniqlash va unga nisbatan ta'sir etish choralari qo'llash vakolatiga ega bo'ladi[5].

Nazorat – maxsus vakolatli davlat organlari tomonidan o'ziga bo'ysinmagan obyekt faoliyatida qonuniylik va intizomni ta'minlash maqsadida amalga oshiriladigan boshqaruv faoliyatining bir turidir. Nazorat olib borish jarayonida nazorat ostiga olingan obyektning faoliyatiga faqatgina qonuniylik nuqtai nazaridan baho beriladi. Nazoratni amalga oshirish vaqtida nazorat ostiga olingan obyektning ma'muriy-xo'jalik faoliyatiga aralashishga yo'l qo'yilmaydi.

Nazorat maxsus davlat nazorati organlari tomonidan yoki prokuratura organlari tomonidan amalga oshiriladi. Nazorat jarayonida aniqlangan kamchiliklar, qonun buzilishlari bevosita hal qilinmaydi yoki aybdor shaxslar bevosita javobgarlikka tortilmaydi. Nazorat vaqtida aniqlangan kamchiliklar, qonun buzilishlari to'g'risida nazorat olib borilgan organ (tashkilot) bo'ysingan yuqori organga yoki tegishli davlat organlariga (masalan, sud, prokuratura organlariga) murojaat qilish mumkin.

Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish



lozimki, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida kontrol tushunchasi keng yoritilmagan. Yuridik adabiyotlarda, kontrol va nazorat tushunchalari farqlanadi. Jumladan, D.N.Baxrax fikricha, kontrol hajmidan kelib chiqqan holda, agar faoliyatning qonuniyligi va maqsadga muvofiqligi tekshirilayotgan bo'lsa, bu – kontrol, agar faoliyatning qonuniyligi tekshirilayotgan bo'lsa, bu – nazoratdir. Nazorat qisqartirilgan kontroldir[6] deb takidlagan.

Davlat boshqaruvida qonuniylikni ta'minlashda jamoat nazoratining tutgan o'rni ham kattadir. O'zbekiston Respublikasi huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lini tanlagan ekan, albatta, bu jarayonda davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda, qonuniylik va huquq tartibotni ta'minlashda fuqarolar ishtiroki keng ta'minlanishi lozim bo'ladi. So'ngi yillarda bu jarayonlarning huquqiy asoslari takomillashtirila boshlandi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 22-apreldagi O'RQ-350 sonli "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi yangi tahrirda qabul qilingan qonunning 11-moddasiga binoan, "Shaharcha, qishloq, ovul va shahardagi mahalla fuqarolar yig'ini – tegishli hududda qonunlar va boshqa qonun hujjatlarining ijro etilishi, shu jumladan, tadbirkorlik faoliyati subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi, kommunal xizmat ko'rsatish tashkilotlari tomonidan kommunal xizmatlar ko'rsatish sifati, imoratlar qurish hamda hovlilar va uylar atrofidagi hududlarni saqlash qoidalariga rioya etilishi, yerlardan foydalanish va ularni muhofaza etish ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradilar"[7].

Bundan tashqari, 2018 yil 12 aprelda O'zbekiston Respublikasi "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi O'RQ-474 sonli

qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunga binoan davlat organlarining va ular mansabdor shaxslarining quyidagi:

- qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarda, qarorlarda, shuningdek rivojlanish davlat, tarmoq va hududiy dasturlarida jamoatchilik manfaatlarini, jamoatchilik fikrini hisobga olishga;
- fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, jamiyat manfaatlarini himoya qilish sohasidagi qonun hujjatlari talablarining ijro etilishini ta'minlashga;
- o'z zimmasiga yuklatilgan, ijtimoiy va jamoatchilik manfaatlariga daxldor bo'lgan vazifalar va funksiyalarni bajarishga;
- davlat xizmatlarini ko'rsatishga;
- ijtimoiy sheriklik doirasida amalga oshiriladigan bitimlar, shartnomalar, loyihalar va dasturlarni bajarishga doir faoliyati jamoatchilik nazoratining obyekti hisoblanadi[8].

Jamoatchilik nazoratini kengaytirish davlat organlari va mansabdor shaxslarning fuqarolar va jamiyat oldidagi mas'uliyatini yanada oshiradi, ularning qonunlar asosida hamda qonun doirasida harakatlanishini mustahkamlaydi.

O'zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvi jarayonida qonuniylik va intizomni ta'minlashda – *jismoniy va yuridik shaxslarning shikoyat qilish huquqi* ham katta ahamiyatga egadir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 35-moddasiga binoan "Har bir shaxs bevosita o'zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega"[9] deb belgilab qo'yilgan. Buning natijasida fuqarolarning murojat etish huquqi yuzaga keladi.

O'zbekiston Respublikasi "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari



to'g'risida"gi qonunga muvofiq jismoniy va yuridik shaxslar davlat organlari va mansabdor shaxslarga og'zaki, yozma yoki elektron shaklda murojat etishlari mumkin. Murojaatlarning quyidagi turlari mavjud. Bular arizalar, takliflar va shikoyatlar hisoblanadi. Murojaatlar, ularning shakli va turidan qat'i nazar, bir xil ahamiyatga ega bo'ladi hamda belgilab qo'yilgan muddat va tartibda ko'rib chiqiladi. Ushbu jismoniy va yuridik shaxslarning murojatlari natijasida davlat boshqaruvida qonuniylikni taminlashda sud nazorati kelib chiqadi.

Sud nazorati deyilganda manfaatdor shaxslar tomonidan sudga davlat organlari va

mansabdor shaxslarning harakat yoki harakatsizligi ustidan belgilangan tartibda kiritilgan murojatlari natijasida yuzaga keluvchi ommaviy huquqiy munosabatlar sohasida qonuniylikni ta'minlash borasidagi faoliyatga aytiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, davlat organlari va mansabdor shaxslari hamda jismoniy va yuridik shaxslarning davlat boshqaruv jarayonida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlaridan og'ishmasdan harakat qilishini ta'minlovchi usul, vositalar yig'indisini davlat boshqaruvida qonuniylikni ta'minlovchi usullar deb ataymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E.Xojiyev, T.Xojiyev. Ma'muriy huquq. Darslik. – T.: “Fan va texnologiya”, 2008. 519 b.
2. Ю.М.Козлов, Л.Л.Попов. Административное право. – М.: «Юрист», 2000.
3. А.П.Алехин, А.А.Кармолицкий, Ю.М.Козлов. Административное право Российской Федерации. Учебник. –М.: «Зерцало», 1998.
4. П.Т.Василенко. Административное право. –М.: «Юридическая литература», 1990.
5. E.Xojiyev, T.Xojiyev. Ma'muriy huquq. Darslik. – T.: “Fan va texnologiya”, 2008. 519 b.
6. Бахрах.Д.Н, Россинский.Б.В, Стариков.Й.Н. Административное право: Учебник для бузов. –М.:”Норма”, 2004. 707-б.
7. O'zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida”gi O'RQ-350 sonli qonuni / 2013 y / <https://lex.uz/docs/-2156899>
8. O'zbekiston Respublikasi “Jamoatchilik nazorati to'g'risida”gi O'RQ-474 sonli qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.04.2018-y., 03/18/474/1062-son 03/21/670/0089-son, 09.02.2021-y, 03/21/671/0093-son) // <https://lex.uz/docs/-20596>
9. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Xalq so'zi” gazetasi, 1992-yil 15-dekabr, 243 (494)-son; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.03.2019-y, 03/19/527/2706-son, 05.09.2019-y, 03/19/563/3685-son; 09.02.2021-y, 03/21/670/0089-son, 09.02.2021-y, 03/21/671/0093-son) // <https://lex.uz/docs/-20596>